

Zamonaviy matn muharrirlari va protsessorlarining maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilishi va ularning pedagogik samaradorligi

Akbar Shuhratovich Kodirov
ORSID: 0000-0002-3656-5770
akbar2005ak@gmail.com
Sabrina Ixtiyor-qizi Ro'ziboyeva
ruziboyevasabrina@gmail.com
Nilufar O'tkir-qizi Jahongirova
nilufarjaxongirova9@gmail.com
Shahrisabz shahar pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy matn muharrirlari va matn protsessorlarining maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilish imkoniyatlari, ularning pedagogik ahamiyati hamda samaradorligi keng yoritilgan. Xususan, raqamli texnologiyalar asosida ishlovchi dasturiy vositalar orqali bolalarning savodxonlik darajasini oshirish, nutq rivojini qo'llab-quvvatlash, ijodiy fikrlashni shakllantirish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada matn muharrirlarining (masalan, matn yozish, tahrirlash, saqlash, vizual bezash imkoniyatlari) pedagogik jarayonga integratsiyasi orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, matn muharrirlari, matn protsessorlari, maktabgacha ta'lim, pedagogik samaradorlik, raqamli ta'lim, bolalar rivoji, interaktiv ta'lim, savodxonlik, axborot texnologiyalari

The use of modern text editors and processors in the preschool education system and their pedagogical effectiveness

Akbar Shuhratovich Kodirov
ORSID: 0000-0002-3656-5770
akbar2005ak@gmail.com
Sabrina Ikhtiyor-kizi Ro'ziboyeva
ruziboyevasabrina@gmail.com
Nilufar O'tkir-kizi Jahongirova
nilufarjaxongirova9@gmail.com
Shahrisabz City Pedagogical Institute

Abstract: This article explores the application of modern text editors and word processors in the preschool education system and evaluates their pedagogical effectiveness. Particular attention is given to the role of digital technologies in enhancing literacy, language development, creative thinking, and independent learning skills among preschool children. The study examines the functional capabilities of text editors, including text creation, editing, formatting, and storage, as well as their integration into the educational process. The advantages of using interactive and visual tools are discussed in relation to the psychological and developmental characteristics of young learners

Keywords: modern technologies, text editors, word processors, preschool education, pedagogical effectiveness, digital learning, child development, interactive learning, literacy, information technology

Kirish. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli vositalar, interaktiv platformalar va zamonaviy dasturiy ta'minotlar ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va innovatsion tashkil etish imkonini bermoqda. Ayniqsa, zamonaviy matn muharrirlari va matn protsessorlari pedagogik faoliyatda muhim o'rin egallab, bolalarning dastlabki savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ularning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi va qiziqishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar oddiy, tushunarli va vizual jihatdan jozibador bo'lishi talab etiladi. Zamonaviy matn muharrirlari aynan shunday imkoniyatlarni taqdim etib, bolalarga harflar, so'zlar va oddiy matnlar bilan ishlashni oson va qiziqarli shaklda o'rgatishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasi so'nggi yillarda o'zbek olimlari va tadqiqotchilari tomonidan keng o'rganilmoqda. Ayniqsa, raqamli ta'lim vositalari, jumladan, matn muharrirlari va matn protsessorlarining pedagogik jarayondagi o'rni, ularning bolalar rivojiga ta'siri va samaradorligi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu dasturda bolalarning nutqini rivojlantirish, savodxonlikka tayyorlash hamda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Mahalliy pedagog olimlardan N.Saidahmedov, B.Xodjayeov, R.Ishmuhammedov kabi tadqiqotchilar o'z ishlarida interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berganlar. Ularning fikricha, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Shuningdek, A.Abduqodirov va U.Begimqulovlarning ilmiy ishlarida axborot texnologiyalarining ta'limdagi o'rnini, xususan, kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonini tashkil etish masalalari chuqur tahlil qilingan. Ular zamonaviy dasturiy vositalar, jumladan, matn muharrirlari orqali ta'lim materiallarini tayyorlash va taqdim etish pedagog faoliyatini sezilarli darajada yengillashtirishini qayd etadi.[1]

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlarda (masalan, D.Ro'ziyeva, M.Tojiboyeva va boshqalar) bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda interaktiv va vizual vositalardan foydalanishning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, rangli, harakatlanuvchi va oddiy interfeysga ega dasturlar bolalarning diqqatini jalb qiladi, o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi.

Zamonaviy matn muharrirlari, xususan, kompyuterda matn bilan ishlash imkonini beruvchi dasturlar, maktabgacha ta'lim tizimida ko'proq pedagoglar tomonidan didaktik materiallar tayyorlash, rasmlar va qisqa matnlar orqali o'rgatish, harf va so'zlarni tanishtirishda qo'llanilmoqda. Bu esa bolalarda dastlabki savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, matn muharrirlari va protsessorlarining ta'limdagi o'rnini yetarli darajada asoslab berilgan. Biroq, aynan maktabgacha ta'lim tizimida ushbu vositalarning amaliy qo'llanilishi va ularning pedagogik samaradorligini kompleks o'rganish hali ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy matn muharrirlari va protsessorlarining maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilishi katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularni samarali qo'llash uchun metodik asoslarni takomillashtirish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va texnik infratuzilmani mustahkamlash zarur.

Natija va muhokamarlar. Maqolada ko'rib chiqilgan o'zbek manbalari tahlilidan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy matn muharrirlari va protsessorlarining pedagogik samaradorligi bir qator jihatlar orqali aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalardan samarali foydalanish bolalarning dastlabki savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish, nutq va til rivojini

qo'llab-quvvatlash, shuningdek ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbek olimlari, jumladan N.Saidahmedov va B.Xodjayevning tadqiqotlariga ko'ra, interaktiv va vizual texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish bolalarda bilimlarni tezroq va chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Matn muharrirlari esa bolalarga harflar, so'zlar va oddiy matnlar bilan ishlash imkoniyatini berib, dastlabki savodxonlikni mustahkamlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagoglar uchun bunday dasturlar didaktik materiallar tayyorlash, o'quv jarayonini individuallashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy matn muharrirlari yordamida bolalarning bilim olish jarayoni qiziqarli, interaktiv va ijodiy ko'rinishda bo'ladi. D.Ro'ziyeva va M.Tojiboyeva o'z ishlarida shuni ta'kidlaydiki, rangli interfeysga ega, animatsion va vizual ko'rgazmali dasturlar bolalarning diqqatini jalb qiladi va o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu orqali o'quv jarayoni samarali, bolalar esa faollik bilan ishtirok etadi.[1]

Adabiyotlarda qayd etilgan muammolar ham e'tibordan chetda qolmaydi. Z.Nishonova va Sh.Qurbonov tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari bilan ta'minlanganlik darajasi pastligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi yetarli emasligi va metodik asoslarning yetishmasligi muhim to'siq sifatida ko'rsatilgan. Bu esa texnologiyalarni samarali joriy etishda tizimli yondashuv va pedagoglarni malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Zamonaviy matn muharrirlari va protsessorlarining pedagogik samaradorligi faqat texnologiya mavjudligi bilan cheklanmaydi. Ularning samarali qo'llanilishi pedagogik yondashuv, didaktik metodika va bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida bunday dasturlarni qo'llash bolalar rivojini kompleks tarzda qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Maqolaning muhokamalar qismida shuningdek, mavjud o'zbek tadqiqotlariga asoslanib quyidagi xulosalar chiqarilgan:

1. Pedagogik samaradorlikni oshirish: Matn muharrirlari bolalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, savodxonlik darajasini oshirish va nutq rivojini qo'llab-quvvatlashda samarali vosita hisoblanadi.

2. Interaktivlik va motivatsiya: Raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan interaktiv mashg'ulotlar bolalarning diqqatini jalb qiladi, bilimlarni tez va samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

3. Pedagogik qo'llanmalar va metodika: Dasturiy vositalar faqatgina texnologiya sifatida emas, balki pedagogik metodikaga moslashtirilgan holda qo'llanilganda eng samarali natija beradi.

4. Cheklovlar va kamchiliklar: Texnik jihozlar yetarli emasligi, pedagoglarning raqamli malakasi pastligi va metodik qo'llanmalar yetishmasligi texnologiyalarning samarali qo'llanilishiga to'siq bo'lmoqda.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy matn muharrirlari va protsessorlari maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilganda nafaqat bilim olish, balki bolalarning ijodiy va kognitiv rivojini ham qo'llab-quvvatlaydi. Shu nuqtai nazardan, ularni samarali qo'llash strategiyasi pedagogik jarayonning sifatini oshirishga xizmat qiladi va raqamli ta'lim muhitini rivojlantirishga imkon beradi.[2]

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar keng joriy etilishi natijasida o'quv jarayonini tashkil etishda turli dasturiy vositalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, zamonaviy matn muharrirlari va matn protsessorlari maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning metodik faoliyatini takomillashtirish, ta'lim materiallarini sifatli tayyorlash hamda bolalarning bilish faolligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu dasturlar yordamida turli didaktik materiallar, tarqatma varaqalar, rasmlar, topshiriqlar, hikoyalar, o'yin elementlari va interaktiv mashg'ulot ishlanmalari tayyorlanadi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy matn muharrirlari deganda, matnlarni yaratish, tahrirlash, formatlash va saqlash imkonini beruvchi dasturiy vositalar tushuniladi. Bular qatoriga Microsoft Word, Google Docs, LibreOffice Writer kabi dasturlar kiradi. Ushbu vositalar yordamida pedagoglar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mos o'quv materiallarini rangli, rasmlar va qiziqarli shaklda tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, rasm, jadval, diagramma va turli grafik elementlardan foydalanish bolalarning diqqatini jalb etib, mavzuni oson o'zlashtirishga yordam beradi.

Avvalo, zamonaviy matn muharrirlari ta'lim jarayonining ko'rgazmaliligini oshiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'proq vizual tasvirlar orqali bilimni tezroq qabul qiladi. Matn muharrirlari yordamida rangli kartochkalar, alifbo materiallari, hikoya matnlari va o'yinli topshiriqlar tayyorlanadi. Bu esa bolalarda qiziqish uyg'otib, ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga olib keladi. Natijada bolalarning nutq rivoji, fikrlash qobiliyati va mustaqil ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, ushbu dasturlar individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishi va o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lganligi sababli, matn muharrirlari yordamida didaktik materiallar tayyorlash" mavzusida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba jarayonida katta guruhning 28 nafar tarbiyalanuvchisi ishtirok etdi.

Dastlab bolalarga oddiy bosma ko'rinishdagi topshiriqlar berildi va ularning natijalari tahlil qilindi. 28 nafar boladan 6 nafari topshiriqlarni to'liq bajara oldi. Bu umumiy ko'rsatkichning 21% tashkil etdi. Keyingi bosqichda esa zamonaviy matn

muharrirlari yordamida rangli rasmlari topshiriqlar, harfli kartochkalar va hikoya asosidagi mashqlar tayyorlanib, bolalarga taqdim etildi. Mashg'ulot yakunida 20 nafar bola topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajardi. Bu esa 71% natijani ko'rsatdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, matn muharrirlari yordamida tayyorlangan materiallar bolalarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirdi.

Zamonaviy matn protsessorlarining yana bir muhim jihati - pedagog faoliyatini yengillashtirishidir. Tarbiyachi bir marta tayyorlangan materialni saqlab, keyingi mashg'ulotlarda qayta foydalanishi mumkin. Shuningdek, hujjatlarni tez tahrirlash, nusxa ko'chirish va yangilash imkoniyati vaqtni tejaydi. Bu esa pedagogning metodik ishlariga ko'proq e'tibor qaratishiga yordam beradi. Bundan tashqari, matn muharrirlari orqali tayyorlangan materiallar ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi bolalar uchun tayyorlangan topshiriqlarni elektron shaklda ota-onalarga yuborishi mumkin. Bu esa bolalarning uy sharoitida ham mustaqil shug'ullanishiga imkon yaratadi. Natijada ta'lim jarayoni uzluksiz davom etadi.[4]

Zamonaviy matn muharrirlari maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning nutqini rivojlantirish, tasavvurini kengaytirish va mantiqiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi. Rangli matnlar, rasmlari hikoyalar va o'yinli topshiriqlar orqali bolalarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Shu bilan birga, pedagogik jarayon yanada samarali tashkil etiladi. Biroq zamonaviy matn muharrirlaridan samarali foydalanish uchun muayyan shart-sharoitlar talab etiladi. Jumladan, ta'lim muassasalarida kompyuter texnikasi, printer qurilmalari va zarur dasturiy ta'minot mavjud bo'lishi lozim. Shuningdek, pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari ham muhim ahamiyatga ega. Aks holda, ushbu vositalardan kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi.

Xulosa. Maqolada ko'rib chiqilgan tadqiqotlar va o'zbek manbalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy matn muharrirlari va matn protsessorlari maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular bolalarning dastlabki savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish, nutq va til rivojini qo'llab-quvvatlash, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda samarali yondashuvni taqdim etadi. Maqolada ko'tarilgan muammolar, xususan texnik vositalar bilan ta'minlanganlik yetishmasligi, pedagoglarning raqamli malakasi pastligi va metodik asoslarning to'liq ishlab chiqilmaganligi, ushbu texnologiyalarning samarali qo'llanilishiga to'sqinlik qilishi qayd etildi. Shu sababli, ularni muvaffaqiyatli joriy etish uchun tizimli yondashuv, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish zarur.

Maktabgacha ta'limda zamonaviy matn muharrirlari va protsessorlaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, bolalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va pedagoglarning ish samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois, ushbu texnologiyalarni keng joriy etish, ularni pedagogik metodikaga moslashtirish va pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish dolzarb va strategik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidahmedov N. Maktabgacha ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2019. – 152 b.
2. Xodjayev B. Pedagogik innovatsiyalar va raqamli ta'lim vositalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 184 b.
3. Ishmuhamedov R. Maktabgacha ta'lim muassasalarida interaktiv metodlarni qo'llash. – Toshkent: Fan, 2018. – 136 b.
4. Abduqodirov A. Zamonaviy dasturiy ta'minotlardan foydalanish orqali maktabgacha ta'limni rivojlantirish. – Toshkent: Pedagogika, 2021. – 160 b.
5. Begimqulov U. Bolalar savodxonligini oshirishda matn muharrirlarining roli. – Toshkent: Ilmiy-nashriy markaz, 2020. – 140 b.